XALQ DEPUTATLARI ZARAFSHON SHAHAR KENGASHI
QARORI

210300, Zarafshon sh., Marvarid ko‘chasi 1

2022 - yil 31 - dekabr VI-57-198-5-78-K/22 Zarafshon shahar hokimligi

Zarafshon shahrining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi hamda “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonunini inobatga olib, xalq deputatlari shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Zarafshon shahar moliya bo‘limining 2022-yil 21-dekabrdagi 01-12-408/20-02-38/596-son xati ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Zarafshon shahar mahalliy budjetining 2023-yil uchun daromadlari 79 623,6 mln. so‘m, xarajatlari esa 167 504,0 mln. so‘mga tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Zarafshon shahrining 2023-yilga mo‘ljallangan rivojlantirishning makroiqtisodiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga, shahar mahalliy budjetining daromadlarining 2023-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2023-yil uchun shahar budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2023-yil uchun shahar budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratma normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2023-yil uchun shahar mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfert 87 880,4 mln. so‘m miqdorida tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini shahar mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2023-yil uchun shaharning shahar mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 1 580,2 mln. so‘m miqdorida belgilansin.

Shahar budjetining 2023-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

2023-yil uchun shahar budjeti shahsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet

mablag‘larining eng kam miqdori 928,6 mln. so‘m etib belgilansin.

8. Shahar budjetining shakllangan xarajatlarining 5 foiz mablag‘lari jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga 7 901,1 mln.so‘m miqdorida yo‘naltirilsin.

9. Xalq deputatlari shahar Kengashiga keyingi soliq davri uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari uchun belgilangan soliq stavkalariga tegishlicha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni hududlarda joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida kiritilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

10. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2023-yilda quyidagi soliq turlari shahar budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno.

11. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (A. Shoxmirzayev), shahar moliya bo‘limi (N. Xolov), shahar Davlat soliq inpeksiyasi (Z. Shomurodov) ga shahardagi mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjetning prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Shahar hokimi o‘rinbosari (M. Sharipov) tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini

ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

13. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi;

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga, natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga, monitoring qilishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

14. Shahar budjeti shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

15. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (A. Shoxmirzayev), xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyatiga:

mazkur qaror loyihasini “Oltin vodiy” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

16. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

17. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari A. Shoxmirzayev va xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi D. Hamroyev va zimmasiga yuklansin.

Shahar hokimi **N. Rahmanov**

Xalq deputatlari Zarafshon shahar
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-57-198-5-78-K/22-son qaroriga
1-ilova

Zarafshon shahrining 2023-yilga mo‘ljallangan rivojlantirishning makroiqtisodiy prognoz ko‘rsatkichlari

T/r	Ko‘rsatkichlar	2023-yil uchun prognoz
1.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati (foizda)	112,8
2.	Qurilish o‘sish sur’ati (foizda)	105,8
3.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati (foizda)	106,1
4.	Xizmatlar o‘sish sur’ati (foizda)	135,4

Xalq deputatlari Zarafshon shahar
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-57-198-5-78-K/22-son qaroriga
2-ilova

Zarafshon shahar mahalliy budjetining daromadlarining 2023-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/r	Daromad turlari	Jami
1	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i	0
2	Yagona soliq to‘lovidan Davlat budjetiga ajratmalar	0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	34 001 460,0
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (ITD)	0
5	Aksiz solig‘i, jami	0
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	26 540 000,0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 258 000,0
8	Yuridik shaxslar olinadigan yer solig‘i	0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	1 521 000,0
10	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	330 000,0
12	Davlat boji	0
13	Jarimalar	0
14	Ijara to‘lovi	0
15	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	0
16	Yig‘imlar	0
17	**Taqsimlanuvchi daromadlar** (Alkogol,mobil aloqa va tamakiga aksiz solig‘i)	**13 973 173**
	Aholi soni (ming kishi)	**86 046**
	Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	**5 652 865**
	Tamaki mahsulotlariga aksiz solig‘i	**5 895 558**
	Mobil aloqaga aksiz solig‘i	**2 424 750**
	Ma’lumot uchun: 2022 yil parameter	**63 187 030**

Jami daromad	**79 623 633,0**

Xalq deputatlari Zarafshon shahar
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-57-198-5-78-K/22-son qaroriga
3-ilova

2023-yil uchun shahar budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	Xarajatlar jami
1.	**Xarajatlar jami**	**167 504 092,0**
	Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar (jami)	**111 823 983,0**
	shu jumladan:	
1.1	Maorif	**35 319 250,0**
	- maktabgacha ta’lim	**20 438 755,0**
	- umumiy ta’lim	**14 880 495,0**
1.2	Sog‘liqni saqlash jami	**64 588 007,0**
	sog‘liqni saqlash	**64 588 007,0**
1.3	Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari	**8 865 486,0**
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	**1 861 017,0**
	- sport	**7 004 469,0**
1.5	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	**2 980 834,0**
1.6	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi	**9 200,0**
1.7	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	**61 206,0**
2.	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**31 925 070,0**
	shu jumladan:	
2.0	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarini ta’mirlash xarajatlari	**3 000 000,0**
2.1	Obodonlashtirish boshqarmasi	**27 116 490,0**
2.2	Veterinariya bo‘limi	**1 146 320,0**
2.3	Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	**662 260,0**
3.	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari**	**13 009 019,0**
	shu jumladan:	
3.1	Davlat boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari	**13 009 019,0**
4.	Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlari	**1 264 657,0**
5.	Zahira jamg‘armasi	**1 580 227,0**
6.	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	**7 901 136,0**

7.	Transfertlar	**87 880 459**
8.	Boshqa xarajatlar	**0,0**

Xalq deputatlari Zarafshon shahar
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-57-198-5-78-K/22-son qaroriga
4-ilova

2023 yil uchun shahar budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratma normativlari

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslar yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i
1	Zarafshon shahri	100	100	9	100	100

2023-yil uchun shahar mahalliy budjeti daromadlar va xarajatlar prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

Hudud nomi	**Daromad**	**Xarajat**
Zarafshon shahar	79 623 633,0	167 504 092,0

Shahar mahalliy budjetining 2023-yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

Hudud nomi	**Tartibga soluvchi transfert miqdori (ming so‘mda)**
Zarafshon shahar	87 880 459,0

Shahar mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

Hudud nomi	**Miqdor (ming so‘mda)**
Zarafshon shahar	**928 590,0**